


«Tasdiqlayman»

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi direktori



 **I. Azimov**

06

2022y

BUYURTMACHI:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi

2022-yil “Xizmat ko‘rsatish ob’ektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasi” Web-ilova dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish uchun

TANLOV XUJJATLARI

Toshkent shahar – 2022

Tanlov xujjatlarining mazmuni:

I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma

TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA

Ushbu yo'riqnoma 2018 yil 9 apreldagi №472-sonli O'zbekiston Respublikasi "Davlat Tanlovlari to'g'risida"gi Qonuniga asosan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 mayda №3016-son bilan ruyxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha Boshqaruvi Milliy Agentligining "Tanlov tartib-tamoyillarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi" tartibi asosida ishlab chiqildi

1. TANLOV PREDMETI VA TAXMINIY QIYMATI

1. Xizmatda shartnoma asosida foydalanish uchun jalb kilinadigan "Xizmat ko'rsatish ob'ektlari milliy nomlari interaktiv electron platformasi" Web-ilova dasturiy ta'minotini ishlab chiqish.

1.2. Tanlov oxirgi qiymati – 110 000 000 (**bir yuz o'n million**) sum QQS bilan. Ushbu qiymatdan ortiq qiymatdagi takliflar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

Ushbu tanlov yakunlari bo'yicha g'olib chiqqan ijarachi tashkilot bilan shartnoma tuziladi.

1.4. Ishlarni bajarish muddati shartnoma imzolangan kundan boshlab 90 kun.

1.5. Ishlarni boshlash muddati – avans mablag'i o'tkazilgan kundan boshlab xisoblanadi.

2. TANLOV TASHKILOTCHILARI

2.1. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi, (bundan keyin-"Buyurtmachi" deb ataladi) -tanlav tashkilotchisi hisoblanadi.

"Buyurtmachi" manzili:Toshkent shahar Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Xojib ko'chasi 103 uy

2.2. Tanlov "Buyurtmachi" tomonidan tanlovlar o'tkazish bo'yicha tuzilgan Tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi

2.3. Tanlov . Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi binosida "Buyurtmachi" tomonidan tuzilgan Tanlov komissiyasi tomonidan qonunda belgilangan tartibda, belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

3. TANLOV ISHTIROKCHILARI

3.1. Tanlovda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan, kamida 10 yil tajribaga ega bo'lgan barcha yuridik maqomga ega bo'lgan tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Tanlovda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar quyiladi:

tanlov predmeti qiymatining kamida 20 foizi miqdoridagi aylanma mablag'larining yoki ko'rsatib o'tilgan mablag'larni berishga bank kafolatnomasi, ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari va mutaxassislarning mavjudligi;

shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar;

tanlov ob'ektiga o'xshash ob'ektlarda ishlash tajribasining mavjudligi;

o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

tanlov ob'ektida o'z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo'ljallanayotgan hajmi (50 foizdan kam bo'lmagan xolda);

Nizom mablag'i miqdori.

3.3. Agar tanlov predmeti bo'lgan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog'lik faoliyat qonunchilikka binoan litsenziyalashtirishi zarur bo'lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga muvofiq tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlarga ruxsat etiladi.

3.4. Qo'yidagi talabgorlarga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

qayta tashkil etilish (ajratilishi, qo'shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar; mol-mulki musodara qilinganlar, hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-xuquqiy yoki bir biriga moliyaviy qaramligi mavjudlar.

3.5. Tanlov ishtirokchilari – talabgor tashkilotlar tanlov predmetining loyiha xujjatlari, xususan, loyihani grafik qismi (chizmalari) bilan tanishib chiqish va tanlov taklifini tuzish uchun buyurtmachiga (tanlov tashkilotchisiga) taqdim etilishi haqida murojaat kilishga haqlidirlar.